

DUTOR CHOLG'USI ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI
TARBIYALASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Esonova Marjona Sirojiddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
«San'atshunoslik» kafedrası o'qituvchisi,

marjonaesonova56@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0984-6762>

+99897731-73-04

Annotatsiya: mazkur maqolada dutor cholg'usi orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tarbiyalashning nazariy va metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O'zbek xalqining ko'p asrlik musiqiy merosi, xususan, dutor sozining tarixi, tuzilishi va ijrochilik an'analari ko'rib chiqilgan. Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy ning milliy cholg'ular orqali insonni ma'naviy tarbiyalash haqidagi nazariy qarashlari tahlil etilgan. UNESCO ning dutor san'atini nomoddiy madaniy meros sifatida ro'yxatga olishi mavzuning xalqaro darajadagi dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Maqolada dutor ijrochiligini o'qitishda milliy qadriyatlarni shakllantirish uchun besh asosiy metodologik tamoyil taklif etilgan: madaniy kontekstuallik, tarixiy izchillik, shaxsga yo'naltirilganlik, amaliy integratsiya va milliy g'urur tamoyillari. Ushbu tamoyillar asosida dutor darslarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot musiqa ta'limi amaliyotida milliy cholg'u orqali qadriyatlarni tarbiyalash uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: dutor, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, musiqa ta'limi, cholg'u ijrochiligi, metodologik tamoyillar, O'zbek musiqiy merosi.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF
EDUCATION OF NATIONAL VALUES THROUGH THE INSTRUMENT
OF DUTOR



ABSTRACT: This article provides a scientific analysis of the theoretical and methodological foundations of educating national values in students through the dutar instrument. The centuries-old musical heritage of the Uzbek people, including the history, structure, and performance traditions of the dutar, are examined. The theoretical views of Eastern thinkers al-Farabi, Ibn Sina, and Alisher Navoi on spiritual education through national instruments are analyzed. UNESCO's inscription of the dutar art as an intangible cultural heritage further confirms the international relevance of the topic. The article proposes five key methodological principles for forming national values in dutar instruction: cultural contextuality, historical continuity, student-centeredness, practical integration, and national pride principles. Practical recommendations for organizing dutar lessons based on these principles are developed. The study can serve as a methodological foundation for cultivating values through national instruments in music education practice.

Keywords: dutar, national values, spiritual education, music education, instrumental performance, methodological principles, Uzbek musical heritage.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek milliy musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni [2] milliy musiqa merosini saqlash va uni ta'lim amaliyotiga yanada keng joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Shu munosabat bilan o'zbek xalqining qadimiy cholg'u asboblardan biri bo'lmish dutor ijrochiligi san'atini musiqa ta'limi tizimiga integratsiya qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Dutor O'zbek, tojik va boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik musiqiy merosini o'zida mujassamlashtirgan an'anaviy torli cholg'u asbobi. «O'zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg'ularga boy bo'lib, tanbur, dutor, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog'ora kabi



cholg'ular o'zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o'rin topgan» [Rahimov, Lutfullayev, 2010]. Aynan shu boylik, aynan shu meros dutor orqali o'quvchilarga milliy iftixor, vatanparvarlik va madaniy o'zlikni saqlash hissini singdirish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi dutor cholg'usi orqali milliy qadriyatlarni tarbiyalashning nazariy asoslarini ochib berish va bunga yo'naltirilgan metodologik tamoyillar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi: dutorning tarixiy-madaniy ahamiyatini o'rganish; Sharq mutafakkirlarining milliy musiqa va tarbiya haqidagi nazariy qarashlari tahlil qilish; dutor ta'limida milliy qadriyatlarni shakllantirish metodologik tamoyillarini ishlab chiqish; amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, milliy musiqa pedagogikasiga oid ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlarning hujjatlari qo'llanilib, ulardagi eng muhim g'oya va faktlardan to'g'ridan-to'g'ri iqtiboslar keltirilgan.

Dutorning tarixiy ildizlari juda qadimga kamida XV asrga borib taqaladi. Mavlono Zaynulobidin al-Xusayniyning Alisher Navoiyga bag'ishlangan «Risolai dar bayoni qonuni va amali musiqiy» risolasida o'sha zamonda kvarta intervali oralig'ida sozlanuvchi, o'n bir pardaga ega bo'lgan dutor tavsiflanadi. Bu ma'lumot dutorning O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida naqadar qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. O'zbek dutor ijrochiligi maktabining shakllanishida Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand va Xorazm kabi hududiy uslublar muhim rol o'ynagan [Rasultoev, 1997].

Dutor haqidagi eng muhim xalqaro tan olinish 2021-yilda sodir bo'ldi. *UNESCO Dutor ijrochiligini nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritdi va uni «Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy merosining ajralmas qismi» sifatida ta'rifladi [UNESCO, 2021].* Ushbu tan olinish nafaqat dutorning madaniy



ahamiyatini, balki uni avloddan avlodga yetkazishning zarurligi va dolzarbligini xalqaro miqyosda e'tirof etdi.

Dutorning nomi forscha do tar, ya'ni ikki tor, degan ma'noni anglatadi. Asbob odatda tut yog'ochidan yasaladi va ikkita tori bo'ladi. Asrlar davomida dutor O'zbek madaniyatining har bir sohasiga singib ketgan. Umurzakov B.N. ning ta'kidlashicha, dutor cholg'uchiligida bir qancha ijro bezaklari bo'lib, ularning nomlanishi ham turlichadir: Farg'ona, Toshkent va Xorazmda nola, qochirim yoki bezak deyilsa, Buxoro va Samarqandda gulpar deb ataladi [Umurzakov, 2023]. Bu hududiy xilma-xillik dutorning O'zbek xalqi hayotiga qay darajada chuqur singib ketganligini ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlarni tarbiyalash nuqtai nazaridan dutorning quyidagi xususiyatlari ayniqsa muhimdir: birinchidan, u O'zbek xalqining milliy o'zligini ifodalovchi ramziy cholg'u hisoblanadi; ikkinchidan, uning o'rganilishi o'quvchini xalq musiqasi, maqomlar va an'anaviy qo'shiqlar bilan bevosita bog'laydi; uchinchidan, dutor ijrochiligi ustozdan shogirdga o'tkaziluvchi og'zaki an'ana sifatida saqlanib, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ta'minlab kelgan. O'zbek xalq musiqasi ijodiga oid tadqiqotlarida Nurmatov H. shunday yozadi: «Har bir cholg'u o'zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muxlislariga ega. Ularning barcha siru-sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir» [Nurmatov, 2007].

Milliy cholg'u orqali insonni tarbiyalash g'oyasi O'zbek pedagogik tafakkuriga begona emas u Sharqning buyuk allomalari merosida o'z ifodasini topgan. Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar musiqaning, xususan milliy cholg'u asboblari vositasidagi tarbiyaviy kuchiga alohida e'tibor qaratganlar.

Abu Nasr Forobiy o'zining «Kitāb al-Mūsīqī al-Kabīr» («Musiqi haqida katta kitob») asarida musiqani «nafsoniy tarbiya vositasi» sifatida baholagan. Uning ta'kidlashicha, to'g'ri tanlangan musiqi insonni go'zallikka oshno etadi,



axloqan kamolotga yetaklaydi va aqlni rivojlantiradi. Forobiy musiqaning uch turini ajratdi: zavq beruvchi, ehtirosni ifodalovchi va xayolga murojaat qiluvchi. Aynan ushbu uch xususiyat birgalikda musiqa ta'limini to'liq pedagogik vositaga aylantiradi. Forobiyning bu nazariyalari Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy kabi mutafakkirlar tomonidan yanada boyitilib rivojlantirilib borilgan.

Abu Ali Ibn Sino «Kitob ash-Shifo» asarining musiqa bo'limida musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta'kidlab o'tgan. Uning ta'rificha: «Shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma'naviy rivojlanishi uchun musiqa va boshqa san'at turlari orqali ta'sir o'tkazish lozim». Ibn Sino, bundan tashqari, musiqaning tibbiy jihatlariga ham e'tibor qaratib, uning ruhiy kasalliklarni davolashda shifo vositasi sifatida ishlatilishi mumkinligini ta'kidlagan. Musiqa ta'limida ushbu nazariy asos hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Alisher Navoiy musiqa san'atining tarbiyaviy ahamiyatini o'zining «Mahbubul-qulub» asarining musiqa bo'limida atroflicha yoritgan. U nay, g'ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo'buz, qonun, chag'ona kabi musiqa asboblarning fazilatlarini ta'riflab, ularni insoniy go'zallikning ifodasi sifatida ulug'lagan. Navoiyning musiqaga bo'lgan bu munosabati dutor kabi milliy cholg'ularni o'qitish orqali o'quvchilarda milliy iftixor va madaniy o'zlikni shakllantirish g'oyasining ilk nazariy zaminini tashkil etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy musiqa pedagogikasida Elliott D.J. ning ta'kidlashicha: «Musiqa ta'limi o'quvchiga nafaqat texnik ko'nikma beradi, balki u o'z madaniy ildizlarini tushunish va o'zligini anglash imkonini beruvchi qudratli vosita hisoblanadi» [Elliott, 1995]. Bu g'oya Sharq allomalari nazariyasi bilan to'liq hamohangdir va dutor orqali milliy qadriyatlarni tarbiyalashning universal asosini tashkil etadi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda [1] ta'kidlanishicha, ta'lim tizimi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, ularda vatanparvarlik va ma'naviy barkamollikni tarbiyalash maqsadlariga xizmat qilishi



lozim. Shu tamoyilga asoslanib, dutor ta'limida milliy qadriyatlarni shakllantirish uchun quyidagi besh asosiy metodologik tamoyil ishlab chiqildi.

1-tamoyil: Madaniy kontekstuallik tamoyili.

Dutor darslarida har bir o'rgatilayotgan kuy yoki texnika o'zining madaniy kontekstida taqdim etilishi lozim. Ya'ni, o'quvchi faqat nota o'qish va barmoq qo'yishni emas, balki o'rganayotgan kuyning tarixi, qaysi marosim yoki an'anaga mansubligi, qaysi hududda va qanday sharoitlarda ijro etilishini ham bilishi zarur. Masalan, «Yor-yor» kuyini o'rgatishda uni to'y an'anasi, xalq bayramlari va ularning milliy qadriyatlar tizimidagi o'rni bilan bog'lash o'quvchida kuyga bo'lgan emotsional munosabatni kuchaytiradi va milliy madaniyatga qiziqishni oshiradi.

Sharipova G. va Xodjayeva Z. ning «Musiqqa o'qitish metodikasi» darsligida ta'kidlanishicha: «Musiqqa ta'limida o'quvchilarga milliy asarlarni o'rgatishda ularning badiiy-estetik mazmunini, kelib chiqish tarixini tushuntirish orqali musiqiy madaniyatni shakllantirish yanada samarali bo'ladi» [Sharipova, Xodjayeva, 2020]. Bu tamoyilga asoslanib, har bir darsda kamida bitta tarixiy yoki madaniy ma'lumot dutor ijrochiligi bilan bog'liq holda taqdim etilishi tavsiya etiladi.

2-tamoyil: Tarixiy izchillik tamoyili.

O'quvchi dutor ijrochiligini o'rganish jarayonida bu san'atning tarixiy rivojlanish yo'lini ham anglashi lozim. Buning uchun dars jarayonida XV asrdagi dutor tavsiflaridan to hozirgi zamongacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari ko'rsatilishi zarur. Rasultoev J. ning «O'zbek dutor ijrochiligi» asarida [Rasultoev, 1997] keltirilgan tarixiy ma'lumotlar dutor maktablari va ijrochilik an'alarining tarixiy izchilligini ko'rsatish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi bu jarayon davomida o'zini uzoq tarixiy zanjirning bir halqasi sifatida his qila boshlaydi bu esa milliy g'urur va mas'uliyat hissini shakllantiradi.

3-tamoyil: Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili.



Har bir o'quvchi milliy qadriyatlarni o'z shaxsiy tajribasi, xis-tuyg'ulari va hayotiy kuzatuvlari orqali o'zlashtiradi. Shuning uchun dutor darslarida o'quvchiga «bu kuy seni qanday his-tuyg'ularga chorlaydi?», «bu maqomni tinglayotganingda nima esga tushadi?» kabi savol-refleksiyalar taqdim etilishi lozim. Matyakubova U.G'ning ta'kidlashicha: «O'zbek xalq cholg'ulari orqali o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularning estetik didini shakllantirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilishi zarur» [Matyakubova, 2024]. Ushbu yondashuv o'quvchining milliy musiqa bilan shaxsiy emotsional bog'lanishini ta'minlaydi.

4-tamoyil: Amaliy integratsiya tamoyili.

Milliy qadriyatlarni faqat nazariy tushuntirish orqali singdirish yetarli emas ular amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Dutor darslarida ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun quyidagi shakllar tavsiya etiladi: milliy bayramlarda dutor bilan chiqish va ijro etish; xalq qo'shiqlarini yod olib, ularning mazmunini anglagan holda ijro etish; an'anaviy ustoz-shogird formatida kattaroq o'quvchilarning kichik sinfdoshlariga o'rgatishi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ta'lim amaliyotini milliy qadriyatlar bilan boyitish zarurligi belgilab berilgan bo'lib [1], dutor ijrochiligida bu tamoyilning amalga oshirilishi musiqa ta'limini hayotga yanada yaqinlashtiradi.

5-tamoyil: Milliy g'urur tamoyili.

Dutor — nafaqat O'zbek, balki Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy merosi bo'lib, u UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida tan olingan [UNESCO, 2021]. Bu tan olinishdan o'quvchilarni xabardor qilish, ularda o'z milliy cholg'ulari bilan faxrlanish hissini uyg'otish milliy g'urur tamoyilini amalga oshirishning asosiy usuli hisoblanadi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchiga «Sen noyob madaniy merosni davom ettirayotgansan» degan tuyg'uni singdirishi lozim. Bu tuyg'u o'quvchida dutor ijrochiligiga bo'lgan munosabatni sifat jihatidan o'zgartiradi mashqlar majburiyatga emas, balki ongli milliy burchga aylanadi.



"Maqom tafakkuri" usuli.

O'quvchi har yangi maqom kuyini o'rganishdan oldin o'sha maqomning tarixi, emotsional xarakteri va ijrochilik an'analari haqida qisqa (3-5 daqiqa) ma'ruzacha eshitadi. Rahimov Sh. va Lutfullayev A. ning «Cholg'ushunoslik» asarida [Rahimov, Lutfullayev, 2010] har bir maqomning o'ziga xos ifoda vositalari va emotsional mazmuni batafsil ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumotlardan dars oldida qo'llanmalar sifatida foydalanish o'quvchida maqom bilan yaxlit munosabat shakllanishiga yordam beradi.

"Avlodlar zanjiri" usuli.

O'quvchi dutor cholg'usining unga etib kelishi tarixini o'rganadi: kim yaratgan, qanday rivojlanib kelgan, qaysi buyuk sozandalar ijro etgan. Buning uchun musiqa maktablarida «Dutor asr bo'yi» kabi ko'rgazmali materiallar qo'lyozmalar rasmlari, qadimiy miniaturalar, mashhur dutorchilar portretlari dan foydalanish tavsiya etiladi. O'zbek xalq musiqa ijodi bo'yicha darslikda Nurmatov H. [Nurmatov, 2007] xalq cholg'u asboblarning avloddan avlodga o'tish tarixini batafsil yoritgan bu material dars uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

"Milliy bayram repertuari" usuli.

O'quvchi semestr davomida har bir milliy bayram yoki marosimga mos repertuarni o'rganadi: Navro'z uchun bahor kuylari, mustaqillik bayrami uchun tantanali asarlar, to'y kuylarining an'anaviy namunalari. Bu usul «amaliy integratsiya tamoyili»ni bevosita amalga oshirib, o'quvchining milliy bayramlarni his qilishi va undagi musiqaning o'rnini anglashiga yordam beradi. Musiqa ta'limida O'zbek xalq cholg'u ijrochiligining pedagogik imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotda Matyakubova U.G'. [2024] aynan shu yondashuv milliy hayot bilan bog'liq repertuarning tarbiyaviy kuchini alohida ta'kidlagan.

"Ustozdan shogirdga" usuli.

O'zbek dutor ijrochiligining tarixiy an'anasida ustozdan shogirdga og'zaki yo'l bilan o'rgatish asosiy shaklni tashkil etgan. Zamonaviy musiqa ta'limida bu

an'anani saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida tajribali o'quvchilar kichik sinfdoshlarga ba'zi kuylarni o'rgatuvchi «ustoz sinflar» tashkil etish tavsiya etiladi. Bu usul bir vaqtning o'zida ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi uchun milliy pedagogik an'ananing tirik tajribasiga aylanadi.

Ushbu maqolada dutor cholg'usi orqali milliy qadriyatlarni tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari ko'rib chiqildi. Quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik madaniy merosini o'zida mujassamlashtirgan cholg'u bo'lib, UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida tan olinishi uning milliy va xalqaro ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu sababli dutor ijrochiligini o'rgatish faqat musiqiy ko'nikma berish emas, balki milliy madaniy merosni yetkazishning muhim yo'li hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Navoiy ning milliy cholg'u orqali insonni ma'naviy tarbiyalash haqidagi nazariy qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda va zamonaviy musiqa pedagogikasining asosi bo'lib xizmat qila oladi.

Madaniy kontekstuallik, tarixiy izchillik, shaxsga yo'naltirilganlik, amaliy integratsiya va milliy g'urur dutor darslarida milliy qadriyatlarni tarbiyalashning izchil metodologik doirasini tashkil etadi. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda milliy madaniyatga bo'lgan munosabatni sifat jihatidan o'zgartirishga qodir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Prezidentning musiqa san'atini rivojlantirishga oid Farmoni dutor ijrochiligini musiqa ta'limiga integratsiya qilish uchun kuchli huquqiy va siyosiy zamin yaratgan.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: musiqa ta'limi muassasalarida dutor darslarini madaniy-tarixiy mazmun bilan boyitish; o'qituvchilar uchun «Dutor va milliy qadriyatlar» mavzusida malaka oshirish



kurslarini tashkil etish; musiqa maktablarida milliy bayramlar oldidan dutor repertuarini maxsus rejalashtirib borish; dutor ijrochiligini «ustozdan shogirdga» an'anaviy formatda olib borish imkoniyatini ta'minlash.

Ushbu maqolada taklif etilgan yondashuv kelajakda kengaytirilgan empirik tadqiqot asosida yanada mukammallashtirilishi va dutor ta'limidan tashqari boshqa milliy cholg'u asboblari g'ijjak, nay, doira uchun ham moslashtirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «O'zbek milliy musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
3. Rasultoev J. O'zbek dutor ijrochiligi. Toshkent, 1997.
4. Rahimov Sh., Lutfullayev A. Cholg'ushunoslik. Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2010.
5. Umurzakov B.N. Qo'shimcha cholg'u (Dutor). O'quv qo'llanma. Toshkent: Unilibrary, 2023.
6. Nurmatov H. O'zbek xalq musiqa ijodi. Toshkent: G'afur G'lom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2007.
7. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi: darslik. Toshkent: NIF MSH, 2020.
8. Matyakubova U.G'. Musiqiy ta'limda o'zbek xalq cholg'u ijrochiligining pedagogik imkoniyatlari // Ilmiy maqola. 2024.
9. UNESCO. Dutar Making Craftsmanship and Traditional Music Performing Art Combined with Singing. Inscription in the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. 2021. URL: ich.unesco.org
10. Elliott D.J. Music Matters: A New Philosophy of Music Education. New York: Oxford University Press, 1995

